

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR O'RTASIDAGI HUQUQIY MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xamroyeva Komila Yusuf qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi magistranti

xamroyevakomila1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21919212>

Bozor iqtisodiyoti sharoitida infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, davlat budjeti va boshqa davlat resurslarining cheklanganligi sharoitida xususiy sektor kapitali, ilg'or texnologiyalari va boshqaruv tajribasini jalb etish infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 800 milliondan ortiq inson elektr energiyasidan, 2,2 milliarddan ortiq inson esa toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatidan mahrum. Mazkur holat davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, xususan, xususiy investitsiyalarni ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalarga keng jalb etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda DXSH mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida DXSH infratuzilmani rivojlantirish va xususiy investitsiyalarni jalb etishning strategik vositalaridan biriga aylandi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida DXSH loyihalari portfelini 30 milliard dollarga yetkazish maqsadining belgilanganligi mazkur yo'nalishning mamlakat iqtisodiy siyosatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Bunday yirik va uzoq muddatli loyihalarni samarali amalga oshirish esa, avvalo, davlat va investor o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning aniq, barqaror va ishonchli tartibga solinishini talab etadi.¹

DXSH loyihalarining uzoq muddatli va ko'p subyekтли xususiyati davlat hamda investor o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni alohida ahamiyatga ega masalaga aylantiradi. Mazkur munosabatlarning asosiy tamoyillaridan biri taraflarning huquqiy tengligi hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda DXSH bitimi o'z tabiatiga ko'ra fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega ekanligi qayd etilib, u hokimiyat va bo'ysunishga asoslangan ma'muriy-huquqiy munosabatlardan farqlanishi ta'kidlanadi. Shu jihatdan, davlat DXSH loyihasida faqat suveren vakolatlarga ega bo'lgan subyekt sifatida emas, balki shartnoma doirasida muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan teng huquqli sherik sifatida namoyon bo'ladi.

"Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga ko'ra, DXSH davlat va xususiy sherikning muayyan muddatga o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan yuridik munosabatlar tizimidir. Mazkur ta'rif DXSH munosabatlarining murakkab va ko'p qirrali huquqiy tabiatini namoyon etadi. Xususan, DXSH bitimi o'zida investitsiya, ijara, xizmat ko'rsatish, pudrat va boshqa fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ayrim elementlarini mujassamlashtirishi mumkin. Shu sababli bunday loyihalarda taraflarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash investor manfaatlarini himoya qilishning muhim sharti hisoblanadi.²

¹ Якубова М.А. Совершенствование альтернативных методов урегулирования инвестиционных споров в Республике Узбекистан. Монография. – Т. 2023.

² O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>

Bundan tashqari, DXSH munosabatlarining huquqiy barqarorligi ularni tartibga soluvchi fundamental prinsiplarga ham bevosita bog'liq. 2019-yilda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun taraflarning tengligi, shaffoflik, kamsitishga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga qarshi kurashish kabi muhim prinsiplarni belgilab beradi. Mazkur prinsiplar, bir tomondan, davlat manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, investor uchun huquqiy aniqlik va teng raqobat muhitini yaratadi. Ayniqsa, investorning davlat organlari bilan munosabatlarda uning huquqiy maqomi va manfaatlari kafolatlanganligiga ishonch hosil qilishi investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, investorlar huquqlarini amalda ta'minlash faqat qonunchilikda umumiy prinsiplarning belgilanishi bilan cheklanib qolmaydi. Buning uchun DXSH loyihalarini boshqarish va muvofiqlashtirishning samarali institutsional mexanizmlari ham zarur. O'zbekistonda DXSH sohasini boshqarish tizimi so'nggi yillarda bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. 2018-yilda DXSHni rivojlantirish agentligi tashkil etilgan bo'lsa, 2024-yil 30-oktabrdagi Vazirlar Mahkamasining 720-son qarori bilan mazkur sohadagi vakolatlar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga o'tkazildi. Bu esa DXSH loyihalarini davlat moliyaviy siyosati va investitsiya jarayonlari bilan yanada uzviy bog'lash imkonini berdi.³

Institutsional mexanizmlarning takomillashuvi, ayniqsa, yirik DXSH loyihalarini tanlash va amalga oshirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Jumladan, qiymati 10 million AQSh dollaridan yuqori bo'lgan loyihalarni tegishli davlat organlari va Vazirlar Mahkamasi darajasida muvofiqlashtirish, shuningdek, qiymati 1 million dollardan ortiq loyihalar uchun ikki bosqichli tender mexanizmining joriy etilishi loyihalarning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bunday tartiblar investorlar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish bilan birga, loyihaning texnik, moliyaviy va huquqiy jihatdan puxta baholanishiga xizmat qiladi. Biroq DXSH loyihalarining samaradorligi faqat loyihani tanlash va tender jarayoniga emas, balki loyiha davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarning oqilona taqsimlanishiga ham bog'liq. DXSH loyihalarida siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, valyuta va huquqiy risklar mavjud bo'lib, ularni mazkur riskni boshqarish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan taraf zimmasiga yuklash samarali yondashuv hisoblanadi. Risklarning adolatli taqsimlanishi investor uchun noaniqliklarni kamaytirib, davlat uchun esa loyihaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.⁴

Mazkur nuqtai nazardan, O'zbekistonning energetika sohasidagi DXSH loyihalari muhim amaliy misol bo'la oladi. Xususan, Masdar va ACWA Power kabi investorlar ishtirokidagi loyihalarda davlat tomonidan PPA (Power Purchase Agreement) mexanizmi orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasini sotib olish bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlarning belgilanishi investor uchun bozor va ayrim moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bunday mexanizmlar investorning loyiha bo'yicha kutilayotgan daromadlarini prognoz qilish imkoniyatini oshiradi va moliyalashtirish jarayonida loyihaning jozibadorligini kuchaytiradi. Shunga qaramay, DXSH loyihalarining 3 yildan 49 yilgacha bo'lgan uzoq muddatga tuzilishi investorlar oldida boshqa muhim huquqiy xavfni, ya'ni qonunchilikning loyiha amalga oshirilayotgan davrda o'zgarishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Qonunchilikdagi o'zgarishlar investorning xarajatlarini oshirishi yoki loyiha bo'yicha kutilayotgan daromadlarini

³O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi 720-sonli qarori <https://lex.uz/docs/7180726>

⁴Каюмов Б.Э. Совершенствование правовых основ государственно-частного партнерства. Автореферат диссертации (PhD). – Ташкент, 2023

kamaytirishi mumkin. Shu sababli investorlar uchun huquqiy barqarorlik kafolatlarini yaratish DXSH mexanizmining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.⁵

O'zbekiston qonunchiligida mazkur xavfni kamaytirishga qaratilgan barqarorlik kafolatlarining nazarda tutilishi investorlar huquqlarini himoya qilishning muhim vositalaridan biridir. Xususan, Qonunning 34-moddasida yangi qonunchilik hujjatlari qabul qilinishi natijasida xususiy sherikning xarajatlari oshgan yoki daromadlari kamaygan taqdirda, unga kompensatsiya talab qilish yoki DXSH bitimi shartlarini o'zgartirish imkoniyati berilgan. Shuningdek, ayrim hollarda "grandfather clause" mexanizmi orqali bitim tuzilgan vaqtda amalda bo'lgan qonunchilikni muayyan muddat, jumladan, shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, 10 yil davomida qo'llash imkoniyati ta'minlanadi. Mazkur kafolatlar investorning uzoq muddatli loyihalarga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.⁶

Investorlar huquqlarini himoya qilishning yana bir muhim jihati ularning investitsiyadan olingan daromadlarini tasarruf etish imkoniyati bilan bog'liq. Xususan, daromadlarni erkin konvertatsiya qilish va repatriatsiya qilish imkoniyatining kafolatlanishi xorijiy investorlar uchun muhim huquqiy va moliyaviy kafolat hisoblanadi. Bunday kafolatlar, ayniqsa, katta miqdordagi kapital uzoq muddatga jalb etiladigan DXSH loyihalarida investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, DXSH loyihalarida davlat va investor o'rtasidagi huquqiy munosabatlar murakkab, uzoq muddatli va strategik xususiyatga ega bo'lib, ularning samaradorligi investor huquqlarining qay darajada ishonchli himoya qilinishiga bevosita bog'liq. O'zbekistonda mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi milliy qonunchilik tizimi shakllangan bo'lib, unda taraflarning tengligi, shaffoflik, kamsitishga yo'l qo'ymaslik, huquqiy barqarorlik va nizolarni hal etish kabi muhim mexanizmlar nazarda tutilgan.⁷

Shu bilan birga, DXSH sohasida investorlar huquqlarini yanada samarali himoya qilish uchun mavjud mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Jumladan, DXSH loyihalarini muvofiqlashtirish tizimini yanada takomillashtirish, loyihalarni baholash va monitoring qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, investorlar murojaatlarini tezkor ko'rib chiqishning institutsional mexanizmlarini kuchaytirish hamda mediatsiya va boshqa sudgacha nizolarni hal etish usullarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Mazkur choralar davlat va investor o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va infratuzilmaviy loyihalarining uzoq muddatli samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Якубова М.А. Совершенствование альтернативных методов урегулирования инвестиционных споров в Республике Узбекистан. Монография. – Т. 2023;
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi 720-sonli qarori <https://lex.uz/docs/7180726>;
4. Каюмов Б.Э. Совершенствование правовых основ государственно-частного партнерства. Автореферат диссертации (PhD). – Ташкент, 2023;

⁵Nordic Star. ГЧП в Узбекистане: новая модель взаимодействия государства и бизнеса, 2024.

⁶Акобиров С.О. Развитие государственно-частного партнерства в Узбекистане // Известия СПбГЭУ, 2014.

⁷Risk Allocation in Public-Private Partnerships. International Institute for Sustainable Development.

5. Nordic Star. ГЧП в Узбекистане: новая модель взаимодействия государства и бизнеса, 2024;
6. Акобиров С.О. Развитие государственно-частного партнерства в Узбекистане // Известия СПбГЭУ, 2014.
7. Risk Allocation in Public-Private Partnerships. International Institute for Sustainable Development.